

10-SINF. JAHON TARIXI
BSB-2.

DEMO variant **Sana:** _____
Sinf _____ **O'quvchining** _____
F.I.SH. _____

1-topshiriq. Jadvalda berilgan to'g'ri ma'lumotlarga "+" belgisini, noto'g'ri ma'lumotlarga "-" belgisini qo'ying. Maksimal 5 ball.

№	Ma'lumotlar	Javoblar
1	XIX asrning oxirgi 30 yilida rivojlanish sur'atlari keskin tezlashgan Xitoy va Turkiya ilg'or industrial davlatlar qatoriga kirib oldilar.	
2	Birinchi jahon urushidan keyin Germaniya, Avstriya-Vengriya, Rossiya va Usmoniylar imperiyalari tarqalib ketdi.	
3	XX asrda modernizatsiya jarayonini boshlagan ko'pchilik mamlakatlarda yangi tipdagi siyosiy rejimlar shakllandi va ular totalitarizm nomini oldi.	
4	Turkiya Ikkinchi jahon urushida rasman betaraf qolgan bo'lsada, hukmron doiralarning katta qismi Fransiyaga xayrixoh edi.	
5	Jahon urushlari oralig'ida Jazoirida Farhod Abbos, Tunisda Habib Burg'iba, Marokashda Abdul Karim boshchiligidagi milliy-ozodlik harakatlari avj oldi.	

2-topshiriq. Berilgan ma'lumotlar qaysi shaxsga aloqador ekanligini aniqlang va uning nomini yozing. Maksimal 5 ball.

№	Ma'lumotlar	Shaxs
1	Avstriya-Vengriya shahzodasi hisoblanib, uning o'ldirilishi Birinchi jahon urushi kelib chiqishiga sabab bo'lgan.	
2	1932-yil noyabrdagi saylovlarda g'olib chiqqan AQSH prezidenti.	
3	Myunxen kelishuvining imzolanishi natijasida hukumat boshlig'i lavozimidan iste'foga chiqishga majbur bo'lgan Britaniya bosh vaziri.	
4	1933-yil 30-yanvarda prezident Paul fon Gindenburg tomonidan reyxskansler lavozimiga tayinlangan nationalsotsialistlar yo'l boshchisi.	
5	Turkiyada monarxiya bekor qilinishi natijasida taxtdan ag'darildi va mamlakatni tark etdi.	

3-topshiriq. Quyidagi tushunchalar haqida ma'lumot yozing. Maksimal 5 ball

Nyurnberg sud jarayonlari	
----------------------------------	--

Tokio sud jarayonlari	

4-topshiriq. Uchlar ittifoqi va Antantaning vujudga kelishi haqida ma’lumot bering. Maksimal 5 ball.

5-topshiriq. Quyidagi atamalarni izohlang. Maksimal 5 ball.